



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





TIL O'ZGARISHLARINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA (Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslari misolida)

Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Nurmaxmatova Feruza

TerDPI 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada til o'zgarish jarayonlarida ijtimoiy va psixologik omillarning ta'siri va bu holatning yoshlar nutqida aks etishi tahlil qilingan. Raqamli kommunikatsiya, axborot-texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, o'smirlik psixologiyasi, sotsiomadaniy jarayonlarning o'zbek maktab o'quvchilari nutqiga ta'siri ilmiy tahlillar asosida yoritildi. Internet tili, sleng, qisqartmalar va aralash kodning nutqga kirib kelishi, shuningdek, ona tili darslarining nutq me'yorlarini shakllantirishdagi ahamiyati tadqiq etildi. Maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilgan kuzatishlarga va ilmiy dalillarga asoslangan.

Kalit so'zlar: til o'zgarishi, yoshlar nutqi, internet tili, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik omillar, ijtimoiy omillar, yosh xususiyatlari, ona tili darsi, adabiy nutq, nutqning kommunikativ sifatlari, sleng, aralash kod, kommunikativ ehtiyoj.

Til – jamiyatning ijtimoiy hayotini, madaniy va ma'rifiy jarayonlarini, zamonaviy va psixologik ehtiyojlarini aks ettiruvchi tirik tizimdir. Unda kechayotgan o'zgarishlar, avvalo, kommunikativ vaziyat, sotsiomadaniy jarayonlar, fan-texnika inqilobi, yoshlar psixologiyasi hamda raqamli texnologiyalar ta'sirida yuzaga keladi. Aynan yoshlar nutqi til o'zgarishlarining eng dinamik va faol sohasi hisoblanadi. Chunki o'quvchilar, o'sib kelayotgan yoshlar jamiyatda sodir bo'layotgan yangiliklarni tez qabul qiladi, ularni tilga ko'chiradi, nutqida foydalanadi va o'zaro muloqotda faol qo'llaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili darslarining o'tilishi o'quvchilar nutqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy ijtimoiy institutlardan biri sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, yoshlar nutqidagi o'zgarishlarni aynan maktab muhitida o'rganish bugungi kunda dolzarbdir.

Til o'zgarishiga quyidagi ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi:

Axborot texnologiyalarining ta'siri. Bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar o'smirlik nutqiga eng faol ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Telegram, TikTok, Instagram, onlayn o'yinlar va bloglar orqali yoshlar o'z so'z boyligini yangi birliklar, yangi iboralar bilan to'ldirmoqda. Natijada: inglizcha va ruscha so'zlarning kirib kelishi (like, kommentariya, ok, prank, norm, tipa), memlar asosida paydo bo'layotgan yangi leksikalar (trend, virallashmoq, fleks qilmoq), chat qisqartmalari (krch, rp, xd) kabi so'zlar keng qo'llanilmoqda. Bu





jarayon tilning global kommunikatsiya va axborot-texnologiyalariga moslashayotganidan dalolat beradi.

Sotsial guruhlar ta'siri. O'smirlar o'z nutqini ko'pincha tengdosh do'stlarining nutqiga moslashtiradi. Guruhga mansublik psixologiyasi yoshlar nutqida bir xil slengning tarqalishiga sabab bo'ladi. Shu o'rinda sleng atamasiga izoh beradigan bo'lsak, **sleng** – bu ma'lum bir yosh guruhi, kasb egalari yoki ijtimoiy qatlam vakillari orasida o'zaro norasmiy muloqotda ishlatadigan, adabiy til me'yorlariga to'liq mos kelmaydigan, emotsional-ekspressiv jihatdan boyigan so'z va iboralar tizimi sanaladi. Masalan: *“otdi”* – yaxshi bo'ldi, *“portladi”* – zo'r chiqdi, *“kayfiyat ko'tarildi”* ma'nosida *“moodim ko'tarildi”* kabi aralash nutqlar. Bu jarayon o'quvchilarning o'zaro muloqot jarayonida tilni o'zlashtirish, tilda o'zaro aloqa jarayoni yuz berayotgan mexanizmni ko'rsatadi.

Maktab muhitining ta'siri. Maktab – bu o'quvchilarning rasman shakllangan nutq me'yorlari bilan tanishadigan, fikr almashadigan asosiy makondir. Biroq rasmiy dars va darsdan tashqaridagi norasmiy tanaffus nutqidagi tafovut til o'zgarishining ijtimoiy omili hisoblanadi. Dars jarayonida adabiy til me'yorlari talab qilinsa, tanaffusda esa chat tili, oddiy so'zlashuv va sleng ko'proq ustunlik qiladi.

Til o'zgarishiga ta'sir qiluvchi psixologik omillar quyidagilar hisoblanadi:

1. O'smirlik davri xususiyatlari. O'smirlar o'zini ko'rsatish, mustaqil nutq modeli yaratish va jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonida tilni aktiv vosita sifatida ishlatadi. Shuning uchun ular ko'pincha: yangi so'zlar to'qiydi, memlar yaratadi, qisqartmalardan foydalanadi, kattalar nutqidan farq qilishga harakat qiladi. Bu nutqning psixologik o'ziga xosligini shakllantiradi.

2. Emotsional nutqning ustuvorligi. O'quvchilar nutqida emotsional bo'yoq kuchli bo'ladi. Shuning uchun ular qisqa, lo'nda, kuchli ekspressiv birliklarga intiladi: *“O'ta zo'r bo'ldi!”* → *“portladi”*, *“yaxshi kayfiyatdaman”* → *“moodim zo'r”*. Bu tilning psixologik soddalashuvi bilan bog'liq.

3. Kommunikativ qulaylik istagi. Yoshlar ko'pincha tezkor aloqa istagida bo'ladi. Shuning uchun nutq qisqaradi, minimalizm kuchayadi: *“borvoman”*, *“ketvomman”*, *“kelyapsanmi?”* o'rniga *“kelyapsan?”* → *“kelyapsan?”*. Bu esa fonetik soddalashuvni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda yoshlar nutqida kuzatilayotgan o'zgarishlar:

1. Leksik qatlamdagi o'zgarishlar

- xorijiy so'zlar kirib kelishi,
- yangi slenglar paydo bo'lishi,
- internet terminlarining faol qo'llanishi.

2. Grammatik o'zgarishlar

- gap qismlarining tushirib qoldirilishi,
- rasmiy uslub me'yorlaridan chekinish,





- ruscha konstruksiyalarning taqlidi (“menda vaqt yo‘q” → “menda vremya yo‘q”).

3. Fonetik o‘zgarishlar

- talaffuzning soddalashuvi,
- urg‘u o‘zgarishi,
- qisqa aytilish shakllarining ko‘payishi.

4. Nutq madaniyati bilan bog‘liq muammolar

- adabiy til me‘yorlarini farqlamaslik, sinonimlarning kam qo‘llanilishi,
- rasmiy nutqda chat tili elementlarining paydo bo‘lishi.

Yoshlarning nutqini barqarorlashtirish va ularga adabiy til me‘yorlarini o‘rgatishda ona tili darslarining roli juda yuqori hisoblanadi. Ona tili darslarining vazifalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: yoshlarni rasmiy va norasmiy uslublarni farqlashga o‘rgatadi, adabiy norma haqida tushuncha beradi, to‘g‘ri talaffuz va imloni shakllantiradi, o‘quvchilarga o‘z fikrini erkin aytish imkoniyatini yaratadi, nutqni rag‘batlantiradi, nutq madaniyatiga qiziqish uyg‘otadi. Pedagoglar ona tili darslarini turli xil metodlar, zamonaviy texnologiyalar asosida o‘tsa darslar yanada qiziqarli bo‘ladi va yoshlarni o‘ziga jalb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, yoshlar nutqi til o‘zgarishlarining eng faol maydoni hisoblanadi. Raqamli kommunikatsiya, axborot-texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, internet tili, guruh psixologiyasi, o‘smirlik davriga xos emotsional ehtiyojlar nutqning leksik, fonetik, grammatik va uslubiy qatlamlarini o‘zgartiradi va yoshlarning nutqiga ta‘sir qiladi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ona tili darslari til o‘zgarishlarini to‘g‘ri yo‘naltirishda, adabiy til me‘yorlarini mustahkamlashda, nutq madaniyatini shakllantirishda, o‘quvchilarning ma‘naviyatini yuksaltirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. O‘qituvchi yondashuvi psixologik, pedagogik va metodik jihatdan puxta bo‘lsa, yoshlar nutqidagi ijobiy o‘zgarishlar kuchayib, salbiy tendensiyalar kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.R.Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”, T – 2018y, 11 b.
2. “Nutq madaniyati” (o‘quv metodik qo‘llanma), T – 2007 y, 46-47 b.
3. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: “Movarounnahr”, 2016. – B. 5.
4. Таранов П. Энциклопедия высокого ума. М., 1999, с.16
5. Rajabov H. I “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T.: “Fan va texnologiya” 2020-yil, B-207

